

TA'LIM TIZIMIDA TARBIYASI QIYIN BOLALAR BILAN PSIXOLOGIK MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH

Samatova Dildfuza Abdusalol qizi

Jizzax shahar 18-maktab psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimida tarbiyasi qiyin bolalar bilan psixologik mashg'ulotlar olib borishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Tarbiyasi qiyin bolalarning psixologik xususiyatlari, ularning xulq-atvorida kuzatiladigan muammolar hamda korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, psixolog, pedagog va ota-onalar hamkorligining samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyasi qiyin bolalar, psixologik mashg'ulotlar, xulq-atvor, korreksiya, psixologik yordam, motivatsiya, ijtimoiy moslashuv, emotsional rivojlanish, maktab psixologi, profilaktika.

KIRISH

Ta'lim tizimida tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash dolzarb pedagogik va psixologik masalalardan biri hisoblanadi. Tarbiyasi qiyin bolalar deganda xulq-atvorida me'yoriy qoidalardan chetga chiqish, intizom buzish, agressivlik, darslarga qiziqmaslik yoki ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar kuzatiladigan o'quvchilar tushuniladi. Bunday holatlar bolaning shaxsiy rivojlanishiga, ta'lim jarayoniga va jamoa bilan munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tarbiyasi qiyin bolalarning shakllanishiga turli omillar sabab bo'ladi. Oiladagi nosog'lom muhit, tarbiyadagi xatolar, ota-onalarning e'tibor yetishmasligi, tengdoshlar ta'siri, ruhiy zo'riqishlar va ijtimoiy muammolar shular jumlasidandir. Ayrim hollarda bolaning individual psixologik xususiyatlari ham xulq-atvoridagi qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Psixologik mashg'ulotlarning asosiy maqsadi bolalarning ijobiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etish va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuviga ko'maklashishdan iboratdir. Mashg'ulotlar davomida bolalarda o'zini anglash, o'z his-tuyg'ularini boshqarish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda trening mashg'ulotlari muhim o'rin tutadi. Psixologik treninglar orqali bolalarda muloqot madaniyati, jamoada ishlash ko'nikmalari, o'zaro hurmat va hamkorlik sifatleri rivojlantiriladi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga ham xizmat qiladi.

Rolli o'yinlar va vaziyatli mashqlar ham samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu usullar yordamida bolalar turli hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishni,

muammolarni tinch yo‘l bilan hal etishni va o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini anglashni o‘rganadilar. Natijada ularda mas’uliyat hissi va ijtimoiy kompetensiyalar rivojlanadi.

Art-terapiya, rasm chizish, ertak terapiyasi va ijodiy mashg‘ulotlar bolalarning ichki kechinmalarini ifodalashiga yordam beradi. Bu usullar ayniqsa his-tuyg‘ularini ochiq bayon qilishda qiynaladigan bolalar bilan ishlashda samarali hisoblanadi. Ijodiy faoliyat emotsional zo‘riqishni kamaytirib, ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi

Psixologik mashg‘ulotlarda rag‘batlantirish usulidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bolaning kichik yutuqlarini e’tirof etish va qo‘llab-quvvatlash uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi hamda ijobiy xulq-atvorni mustahkamlaydi. Jazolashdan ko‘ra motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan yondashuv samaraliroq natija beradi. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlik alohida o‘rin tutadi. Oila va maktab tomonidan qo‘yiladigan talablarning bir xil bo‘lishi, bolaning xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni birgalikda kuzatish va qo‘llab-quvvatlash korreksion ishlarning samaradorligini oshiradi.

Maktab psixologi tomonidan muntazam diagnostika ishlari olib borilishi, o‘quvchilarning individual xususiyatlari o‘rganilishi va ularga mos psixologik yordam dasturlarining ishlab chiqilishi tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashning muhim shartlaridan biridir. Olimlarning fikricha bolada mavjud noto‘g‘ri salbiy o‘zgarishlarni ruhiy rivojlanishning me‘yor darajasiga yetkazish orqali tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yo‘qotishga erishish mumkin. Shunday ekan, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Inson tabiatini o‘zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta’sir qiladigan kuch – ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o‘sishi va o‘zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta’sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Ma’lumki odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya’ni uning aqliy tomonlari bilan bog‘liq bo‘lgan sifatleri nasliy yo‘l bilan berilmaydi deb izoh beriladi. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, real hayotda ko‘pincha insonning xarakter xususiyatidagi salbiy og‘ishlar uning nasliy tarkibi bilan bog‘liq ekanligiga amin bo‘lamiz.

“Tarbiyasi murakkab” bolalar bilan ishlashda ularning salbiy xulq-atvorini oldini olish va bartaraf etish uchun bir qator muhim omillarga e’tibor qaratish zarur. Avvalo, har bir yosh davrining psixologik rivojlanish xususiyatlari chuqur o‘rganilib, bolaning individual imkoniyatlari va ehtiyojlari aniqlanishi lozim. Shuningdek, bola xulq-atvorida kuzatilayotgan salbiy o‘zgarishlarning kelib chiqish sabablari tahlil qilinib, ularni bartaraf etishga qaratilgan psixologik-pedagogik choralar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Bunday bolalar bilan olib boriladigan ishlar uzluksiz va tizimli bo'lishi kerak. Maktab, oila hamda mahalla hamkorligida nazorat va tarbiyaviy faoliyat kuchaytirilishi, bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni turli to'garaklar, sport mashg'ulotlari va ijtimoiy foydali mehnat faoliyatlariga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni rivojlantirish, ijobiy namuna bo'la oladigan shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirib borish ham samarali natija beradi.

Ta'lim jarayonida bunday o'quvchilarga alohida e'tibor qaratish, ularni dars va sinfdan tashqari tadbirlarda faol ishtirok etishga undash, o'z fikrini erkin ifodalash imkoniyatlarini yaratish zarur. Ota-onalarning psixologik va pedagogik savodxonligini oshirish, ular bilan muntazam maslahat va suhbatlar tashkil etish ham tarbiyaviy ishlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalaridan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish va rag'batlantirish usullaridan unumli foydalanish bolalarning ijobiy xulq-atvorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada ortdi. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, barkamol avlodni voyaga yetkazishda oilaning o'rni beqiyosdir. Bola hayotining dastlabki yillarida oila uning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvori shakllanishida asosiy tarbiyaviy muhit vazifasini bajaradi.

Farzandlar yaxshilik va yomonlik, adolat va nohaqlik haqidagi dastlabki tasavvurlarini ota-onalarining hayot tarzi va munosabatlari orqali shakllantiradilar. Oila muhitida mehr-oqibat, hurmat, samimiylilik va mas'uliyat hukm sursa, bu fazilatlar bolalarda ham rivojlanadi. Aksincha, oiladagi nizolar, e'tiborsizlik, befarqlik va axloqiy me'yorlarning buzilishi bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bolalar ruhiy jihatdan juda ta'sirchan bo'ladilar. Kattalar tomonidan bildirilgan qo'pol munosabat, adolatsizlik yoki e'tiborsizlik ular qalbida chuqur iz qoldirishi mumkin. Shu sababli tarbiya jarayonida bolaning hissiy kechinmalarini inobatga olish, uning sha'ni va qadr-qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish muhimdir. Ota-onalar va pedagoglarning xulqi, so'zlari hamda kundalik faoliyati bolalar uchun namuna vazifasini bajaradi.

“Tarbiyasi murakkab” bolalar odatda tarbiyaviy jarayonda yetarli e'tibor va individual yondashuvdan chetda qolgan o'quvchilardir. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, muammolarining sabablari ham turlicha bo'lishi mumkin. Shu bois ular bilan ishlashda umumiy yondashuv emas, balki individual pedagogik va psixologik yordam ko'rsatish zarur. Bunday bolalarni o'z vaqtida aniqlash, ularga nisbatan jamoatchilik, oila va ta'lim muassasasi hamkorligida samarali ta'sir choralari qo'llash kelajakda salbiy oqibatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, bolalar tarbiyasi jamiyatning muhim vazifalaridan biri bo'lib, har bir bolaning sog'lom, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishi uchun oila, maktab va jamoatchilikning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari zarur hisoblanadi. Tarbiyadagi izchillik, mehr va mas'uliyat esa ushbu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardir.

XULOSA

Ta'lim tizimida tarbiyasi qiyin bolalar bilan psixologik mashg'ulotlar olib borish ularning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish, ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik treninglar, ijodiy mashg'ulotlar, individual yondashuv hamda oila va maktab hamkorligi orqali bunday bolalarda ijobiy sifatlarni rivojlantirish va salbiy xulq-atvorning oldini olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
3. Nishonova Z.T. Bolalar va o'smirlar psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
4. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent, 2019.
5. Shoumarov G'.B. Amaliy psixologiya. – Toshkent, 2018.
6. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva.
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.